



**KLINIK LABORATOR  
DIAGNOSTIKADA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH, MUAMMOLAR VA  
YECHIMLAR**  
**xalqaro ilmiy-amaliy  
anjuman**  
**18 aprel 2023 yil**



**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi**

**WWW.SSV.UZ**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi WWW.TMA.UZ**

**Mazkur to‘plamda Toshkent tibbiyot akademiyasining “Klinik laborator diagnostikada innovatsion texnologiyalardan foydalanish, muammolar va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.**

**To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifatiga muallif(lar) javobgar hisoblanadi.**



**Toshkent – 2023**

diseases .....	230
<b>Berger I.V.</b> Цитокиновые сдвиги у гематологических пациентов с тромбозами .....	232
<b>Bobojonova Sh.D., Saidov A.B., Samatova L.D.</b> Donorlarda brutsel-lyoz diagnostikasi .....	234
<b>Djurabayeva M.H, Muxiddinova M.</b> Comparative characteristics of lung tuberculosis treatment models .....	235
<b>Do'stmuhammedova R.Z., Xasanova M.A., Xudayberganova A.A.</b> Some aspects of hair research in the forensic relationship .....	237
<b>Do'stmuhammedova R.Z., Xasanova M.A., Xudayberganova A.A.</b> Sud tibbiy munosabatlarda sochlarni tekshirishning aspektlari .....	238
<b>Elboyeva H.D.</b> Kaltsiyning klinik ahamiyati .....	239
<b>Ergashev A.D., Maxamatjanova N.M.</b> Correction of post-Covid-19 anxiety-phobic disorders by erickson hypnosis .....	240
<b>Ergasheva U.A.</b> Alaninaminotransferaza klinik ahamiyati .....	241
<b>Fayzullayev Sh.Sh., Saidov A.B., Kurbonova Z.Ch.</b> Qon tarkibiy qismlari infeksiyon xavfsizligini ta'minlash usullari .....	243
<b>Gafurova S.Sh., Yusuphadjayeva S.T.</b> Ta'sirlangan ichak sindromida xavotir-fobik buzilishlar, ularda psixoterapiya va psixofarmakoterapiyaning samaradorligi .....	245
<b>Hamrayev B.O'.</b> O'tkir nurlanish ta'sirida laboratoriya hayvonlarining o'pkasida morfologik o'zgarishlarning o'ziga xosligi .....	246
<b>Islamova Z.S., Babadjanova Sh.A., Musaeva N.B.</b> Gemorragik vaskulitda endotelial disfunksiya rivojlanishida villebrand omilining ahamiyati .....	248
<b>Islamova Z.S., Musaeva N.B., Yusupxodjaeva X.S., Botirxujaeva A.A.</b> Immun mikrotrombovaskulitda trombomodulin omilining ahamiyati .....	249
<b>Jienbaeva A.A., Kurbonova Z.Ch.</b> Diagnosis of kidney damage in heart failure .....	251
<b>Jiyenbayeva A.A., Kurbonova Z.Ch.</b> Yurak yetishmovchiligida buyrak shikastlanishining diagnostikasi .....	252
<b>Jumanazarov S.B., Jabbarov O.O.</b> Surunkali glomerulonefrit rivojlanishida nomzod genlarning roli .....	254
<b>Jumayeva Z.S.</b> Albumin va uni laborator tahlil qilish .....	256
<b>Jumayeva Z.S.</b> Bilirubin fraksiyalarini laborator tahlil qilish .....	257

**TA'SIRLANGAN ICHAK SINDROMIDA XAVOTIR-FOBIK  
BUZILISHLAR, ULARDA PSIXOTERAPIYA VA  
PSIXOFARMAKOTERAPIYANING SAMARADORLIGI**

**Gafurova S.Sh., Yusuphadjayeva S.T.**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston**

**Dolzarbli:** Tasirlangan ichak sindromi- psixosomatik kasalliklarga klassik namoyon bo'la oladigan kasallik bo'lib, u ko'pincha shaxsni ruxiy zo'riqishidan so'ng namoyon bo'ladi[1]. Tasirlangan ichak sindromi o'rta og'ir klinik kechishida bemorlar ruxiyatida xavotir va depressiya kuzatilishi bilan namoyon bo'ladi bunda ijtimoiy psixologik dezadaptatsiya rivojlanadi va xayot sifati sezilarli darajada pasayadi[2]. TIS kelib chiqishining asosiy sababchisi – bu doimiy psixoemotsional stresslar. Shu bois ham ushbu sindrom psixosomatik buzilishlar sirasiga kiradi. Doimiy asabiy-ruhiy zo'riqishlar, melanxoliya va shaxsning nevrotik tipda shakllanishi kasallik rivojlanishiga turtki bo'ladi [3]. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib ta'sirlangan ichak sindromi va unda tibbiy psixologik yordam ko'rsatish tamoyillarini takomillashtirish dolzarb deb topildi.

**Tadqiqot maqsadi:** Ta'sirlangan ichak sindromida nevrotik buzilishlarni differensial tahlili va ularda tibbiy psixologik yordamni takomillashtirish.

**Tadqiqot materiallari va usullari:** Tadqiqot ishlari 2022 yil mobaynida Toshkent Tibbiyot Akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi gastroenterologiya bo'limida yeg'ildi. Ta'sirlangan ichak sindromi tashxisi bilan xastalangan bemorlar tahlil qilindi. Tekshiruv 62 nafar bemorda olib borildi. Bemorlar o'rta yoshi  $29 \pm 4,5$  iborat. Erkaklar 24 nafar, ayollar 38 nafar bo'lgan. Bemorlar ikki guruhga bo'lingan holda o'rganildi: Birinchi gurux - 30 ta bemorga faqat TIS da qo'llaniladigan standart basis davo va psixofarmakoterapiya ya'ni Sulpirid 200 mg 1/2 dan 1 maxal 1 oy qo'llanildi. Ikkinchi gurux - 32 ta bemorga standart davo psixofarmakoterapiya ya'ni Sulpirid 200 mg 1/2 dan 1 maxal 1 oy va undan tashqari psixoterapiya qollanildi. Havotir-fobik buzilishlarni aniqlash maqsadida Spilberger-Xanin so'rovnomasidan foydalanildi[4].

**Natijalar:** Bemorlarda xavotirli-fobik buzilishlarni baholashda 1-guruhdagi bemorlarda shaxsiy xavotirning uch xil darajasi borligi aniqlandi. Xususan, 12 bemorda (40%) yengil xavotir, 10 bemorda (33,3%) o'rtacha va 8 bemorda (26,6%) og'ir xavotir borligi aniqlandi. Davolanish tugagandan so'ng, bu ko'rsatkichlar quyidagi qiymatlarda aks ettirilgan: 18 bemorda yengil xavotir (60%), 8 bemorda o'rtacha xavotir (26,6%) va 4 bemorda og'ir xavotir (13,3%). 1-guruhdagi bemorlarda reaktiv fobik buzilishlar uchun ballar : 15 bemorda yengil fobik buzilishlar (50%), 7 bemorda o'rtacha fobik buzilishlar (23,3%) va 6 bemorda og'ir fobik buzilishlar (20%). Shuningdek, ular davolanishdan keyin ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarishi to'g'risida ma'lumot berishdi: yengil fobik buzilishlar 20 bemorda (66,6%), o'rtacha fobik buzilishlar 5 bemorda (16,6%) va 3 bemorda (10 %) og'ir fobik buzilishlar. Fobik buzilishlar ko'rsatkichlari (1-guruh) Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, birinchi gurux bemorlarida xavotirning og'ir va o'rtacha shakllari kamayib, yengil shakliga aylangan, yengil tashvish butunlay yo'qolgan. 2-guruhda davolanishdan oldingi tashvish ko'rsatkichlari: 15 bemorda yengil

xavotir(47%), 9 bemorda o'rtacha xavotir (28%) va 8 bemorda og'ir (25%). 2-guruhda davolanishdan keyin bu ko'rsatkichlar quyidagicha o'zgardi: 18 bemorda (56%) yengil xavotir, 4 bemorda (13%) o'rtacha xavotir, 1 bemorda (3%) kuchli xavotir va 9 bemorda (28%) xavotir umuman bezovta qilmagan.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, ta'sirlangan ichak sindromi bilan og'riqan bemorlarda kuzatilgan xavotirni davolash kasallikning kechishini yengillashtiradi va remissiyalar muddatini uzaytiradi. Psixoterapiya va psixofarmakoterapiyani asosiy davolash bilan bir vaqtda qo'llash kasallikning qaytalanishi va qaytalanishi xavfini kamaytirish, ish qobiliyatini tiklash va hatto kasallikdan tiklanishni tezlashtirish va asosiy davolanishga rioya qilishni oshirish imkonini beradi.

#### **Adabiyotlar.**

1. Гафурова С.Ш. Юсупхаджаева С.Т. Тревожные-фобические расстройства при синдроме раздраженного кишечника и эффективность психотерапии и психофармакотерапии // Innovative Research In Science International scientific-online conference. 2022. P. 8.

2. Психосоматические расстройства в практике терапевта: рук-во для врачей / под ред. В. И. Симаненкова. СПб.: СпецЛит, 2016. 335с.

3. Darvish-Damavandi M., Nikfar S., Abdollahi M. A systematic review of efficacy and tolerability of mebeverine in irritable bowel syndrome // World J. Gastroenterol. 2015. Vol. 1, № 5. P. 547-553.

4. Ибодуллаев З.Р., Махаматжанова Н.М.. COVID-19 dan keyingi xavotir buzilishlarni samarali davolashda erikson gipnozini qo'llash // Журнал неврология и нейрохирургических исследований. 2021

## **O'TKIR NURLANISH TA'SIRIDA LABORATORIYA HAYVONLARINING O'PKASIDA MORFOLOGIK O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOSLIGI**

**Hamrayev B.O'.**

**Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O'zbekiston.**

**Ishning maqsadi** eksperimental tadqiqotlarda o'tkir nurlanish ta'sirida laboratoriya hayvonlarida o'pka morfologik xususiyatlari o'zgarishlarini o'rganish va baholashdan iborat bo'ldi.

**Material va tadqiqot usullari.** Eksperimental tadqiqotlar uchun erkak jinsidagi, 160-180 gr og'irlikdagi 60 ta oq zotsiz kalamushlar tanlangan. Barcha laboratoriya hayvonlari bitta vivariydan olingan va bir xil yoshda bo'ldi. Ushbu voyaga yetgan (3 oylik) oq zotsiz kalamushlar nisbiy namlik (50-60%), harorat (19-22<sup>0</sup>C) va yorug'lik rejimida (12 soat qorong'ulik va 12 soat yorug'lik rejimida) standart vivariy sharoitida saqlandi. Laboratoriya hayvonlari standart vivariy oziq-ovqat ratsionini tuzishda Nuraliev N.A. va hammual. [2016] uslubiy qo'llanmasida ko'rsatilgan tavsiyalardan kelib chiqildi. Laboratoriya hayvonlarini saqlash, jonsizlantirish va anatomic yorishda barcha biologic xavfsizlik qoidalari va laboratoriya hayvonlari bilan ishlashning etik tamoyillariga [Nuraliev N.A. va hammual., 2017] qat'iy rioya qilindi. Laboratoriya hayvonlari bilan tajribalar